



## BOSHLANG`ICH TA`LIMNI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION USULLARI HAMDA ULARNI AMALIYOTDA QO`LLASH MASALALARI

*Davlatova Muaddam*

*Namangan viloyati 88-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Namangan viloyati, Barkamol MFY 88-umumta`lim maktabi misolida boshlang'ich sinflarda fanlarni o'rgatishning turli metodikalari bayon qilinadi. Umumta`lim maktablarining boshlang'ich sinflarida fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan. Innovatsion texnologiyalar yordamida dars mashg'ulotlarini sifatini oshirish taklif qilingan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, darsning mantiqiy strukturasini qurish, mantiqiy fikrlash, mustaqil ish, didaktik materiallar, prezentatsiya.


### KIRISH

Bugungi kunda Respublikamizda, shu jumladan 900 ta o`quvchiga ta`lim berilayotgan Namangan viloyat, Barkamol MFY, 88-umumiy o'rta ta'lim maktabida sifatli ta`lim olib borish uchun barcha imkoniyatlar ochib berilgan. Ushbu maktab o'qituvchilarning mahorati, o`quvchilarning tartib-intizomi, ta`lim metodikasi borasida kungdan-kunga yangi marralarni zabit etmoqda. Ayniqsa boshlang'ich ta`lim yangi zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar yordamida rang-baranglik kasb etmoqda. Boshlang'ich sinflarda kompyuterli o'qitish – predmetlar muhitini elementlarini o'zgartiruvchi va boyituvchi sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari aynan bunday yoshda bolaning aqliy qobiliyatlarini jadal rivojlanish jarayoni kechadi, uning intellektual salohiyatini rivojlanishi uchun fundament yaratiladi. O'quv jarayonida pedagogik,



innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalarini samarali yechish uchun imkoniyat yaratadi, jumladan<sup>2</sup>:

1. o‘quv jarayonini qiziqarli va mahsuldor qilish hisobiga o‘quvchida materialni anglab olish motivatsiyasi ortadi;
2. mustaqil ishlash va o‘zini-o‘zi nazorat qilish ko‘nikmasi rivojlanadi; 3.darsning samaradorligini va har bir o‘quvchining o‘zlashtirishini ta’minlaydi;
4. har bir o‘quvchining fikrlashini, sezish, intilishlarini, tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga umumiyl optimal rivojlanishga erishiladi; sinfdagi barcha bolalarning faol ishlashi ta’minlanadi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2018. – 180 b.

<sup>3</sup> Gaybullaev N.G, I. Dyrchenko. Razvitie matematicheskix sposobnostey uchaщixsya. T.: «O‘qituvchi», 2018



Kompyuterlarning o‘quv jarayoniga jadal kirib kelishi pedagoglar hayotida misli ko‘rilmagan darajada o‘qitishning yangi turlarini, shakllarini keltirib chiqardi. Boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ikkita asosiy masalani yechish bilan bog‘liq: bolalarni yangi texnikaviy vositalardan foydalanishga o‘rgatish va o‘quvchilarning o‘qish va o‘qishdan tashqari faoliyatida yangi imkoniyatlarini ochish va takomillashtirish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagoglar oldiga juda katta muammolarni keltirib chiqardi. Chunonchi, zamonaviy pedagog kompyuterdan foydalanishni bilishi, kompyuter yordamida o‘qitish vositalaridan foydalana olish va uni o‘quv jarayoniga tadbiq qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, o‘z bilimini kompyuterli o‘qitish bo‘yicha doimo takomillashtirib borishi va hakoza zarur. Amaliyotda shuni takidlash joyizki, masalan, 3-sinf matematika darslarida, o‘quv materialini o‘rgatish kompyuterli texnologiya asosida tashkil qilinganda o‘zlashtirish sezilarli darajada yaxshilandi, o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqish ortdi, mustaqil ishlash ko‘nikmasi paydo bo‘ldi, bilimni o‘zlashtirish bo‘yicha imkoniyatlari rivojlandi, ijodiy yondashuvlar paydo bo‘la boshladи, o‘ziga va bilimiga bo‘lgan ishonch shakllana boshladи.

Ayniqsa boshlang‘ich maktabda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib dars jarayonini tashkil qilish dolzarb hisoblanadi. Chunki 1-4 sinf o‘quvchilarida



ko‘rgazmali-obrazli fikrlash rivojlangan, shu boisdan ham dars jarayonini kompyuter texnologiyalaridan foydalanib tashkil qilish juda muhim. Buning uchun sifatli ko‘rgazmali materiallarni maqsadli tarzda juda ko‘p tayyorlash va undan foydalanish zarur, bilimni qabul qilish jarayoniga yangi ko‘rinishlarni tadbiq qilish, tovushlar, slaydlar, animatsiyalar bilan.

Boshlang‘ich mактабда turli darslarda AKTdan foydalanish o‘qitishning ko‘rgazmali-tasvirli-tushuntirish uslubidan faoliyatlari uslubga o‘tishga imkoniyat yaratadi, bunda o‘quvchi o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga, sub’ektiga aylanadi. Bu esa o‘quvchida bilimni anglagan holda o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Shu boisdan ham zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinflarda kompyuter texnologiyalarini qo‘llab dars jarayonini tashkil qilish ijodkor, novator pedagoglar tomonidan amalga oshirilmoqda, bu esa ko‘pchilik pedagoglarning hayotiy ish normasiga aylanib bormoqda<sup>4</sup>.

O‘рганилаган fan materiallari, chunonchi, 3-sinf matematikasi orqali tabiat va jamiyatning umumiyligi qonuniyatlarini, shuningdek, matematik reallikni bilib olishning o‘quvchilar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini oddiy raqamli, sonli misollar hamda ularga mos izohli matnlar (raqamlar yoki sonlar tilga kirganda uslubida) orqali tushunib olish mumkin. Tavsiya etilayotgan kundalik turmushga oid misollarga mos izohli matnlar slaydlar, animatsiyalar ko‘rinishida boshlang‘ich sinflarda dars jarayonida foydalanilganda yoki sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar tomonidan mustaqil foydalanilganda bilim olish jarayoni yanada samarali bo‘ladi.

AKT – bu o‘qituvchi qo‘lidagi juda quvvatli, ko‘p qirrali, universal instrumental vosita hisoblanadi, buni egallab olishi va o‘zining predmeti bo‘yicha darslarda undan maqsadli foydalanishi zarur.

## XULOSA VA MUNOZARA

Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida turli darslarni AKT foydalanib tashkil qilish tajribalarini tahlili shundan dalolat beradiki, ya’ni to‘liq ishonch bilan aytish mumkinki, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

<sup>4</sup> Abdullayeva Q., va boshqalar “Ona tili” T., “O‘qituvchi ”2014 yil.



- ta'lim jarayonini ijobiy motivatsiyalashni ta'minlaydi;
- darslarni yuqori estetik va emotsiyal darajada o'tishni (slaydlar, musiqa, animatsiyalar, multimedialar);
- o'qitishning yuqori darajadagi differensiyasini ta'minlaydi;
- darsda bajariladigan ish hajmini 1,5 – 2 baravar oshiradi;
- bilimni nazorat qilishni takomillashtiradi;
- o'quv jarayoni ratsional tashkil qilinadi, darsning samaradorligi ortadi;
- o'quvchi faoliyatida izlanish, ijod qilish ko'nikmasi shakllanadi;
- elektron kutubxonalarga, axborot resurslariga, turli-tuman ma'lumotlar tizimiga kirishga imkoniyat yaratadi va hakozo.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2018. – 180 b.
2. Gaybullaev N.G, I. Dyrchenko. Razvitie matematicheskix sposobnostey uchaščixsy. T.: «O'qituvchi», 2018
3. Habib R.A. O'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish. T.: «O'qituvchi», 2011
4. Abdullayeva Q., va boshqalar “Ona tili” T., “O'qituvchi ”2014 yil.
5. Azizzoxjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2016.